

## JAMIYATDA LIDER AYOLLARNING O'RN

*Azibayeva Samira*

*Toshkent shahar Yunusobod tumani  
259-maktab tarix fani o'qituvchisi*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada jamiyat bo'g'inlarida lider ayollarning o'rni, ahamiyati yoritiladi. Masalaning mohiyati Toshkent shahar Yunusobod tumanidagi 259-umumiy o'rta ta'lim maktabining rahbari Tokareva Irina Aleksandrovna misolida ko'rib chiqiladi.

**Kalit so'zlar:** Lider, rahbar, jamiyat, maktab, o'qitish.

### KIRISH

Jamiyatda goho erkak liderda muhitdagi stereotiplarni o'zgartirishga ("qayta quruvchi lider" yoki "yaratuvchi lider") intilish ko'zga tashlanadi. Shuning uchun ham jamiyatdagi tub islohotlarni amalga oshirgan, xalq, millat tarixiy-madaniy paradigmasini, dunyo, hayot, jamiyat haqidagi tasavvurlarni, stereotiplarni o'zgartirgan liderlar, asosan, erkaklar bo'lib keladi. Ayol liderlarda ijtimoiy muhitga quloq tutish, an'analarga rioya etish, kishilar hayotini keskin o'zgartirmasdan boshqarish xislatlari ko'zga tashlanadi. Bu sharqona axloq-odob, boshqarish ta'siridir. Professional rahbarda kishilarni majburlash imkoni mavjud, ijtimoiy-siyosiy faollik ko'rsatayotgan ayol liderda bunday imkoniyat yo'q, u kishilarni undashi, ko'ndirishi orqali ko'zlangan maqsadiga erishadi. U tom ma'nodagidemokratik boshqarish vakilidir, o'z faoliyati bilan davlat vakillik organiga demokratik qadriyatlarni olib kiradi, ularning qaror topishga xizmat qiladi.

### TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Shunday lider ayollardan biri Toshkent shahar Yunusobod tumanidagi 259-umumiy o'rta ta'lim maktabining rahbari, Toshkent shahar direktorlar kengashi raisi Tokareva Irina Aleksandrovna'dir. Tokareva I.A. ko'p yillik tajribaga ega ilg'or rahbar sifatida zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalangan holda yosh avlodni barkamol voyaga yetkazish borasida samarali mehnat qilib kelmoqda.

Mohir rahbar 2006 yilda "Mustaqillikning 15 yilligiga bag'ishlangan" medal bilan takdirlangan. 2010 yil "Xalq ta'limi a'lochisi" faxriy unvonga sazovor bo'lgan.

Uning "Uning o'quv-tarbiya jarayonida innovatsion texnologiyalardan foydalanish", "Zamonaviy ta'lim texnologilardan dars o'tish metodlari" yo'nalishida ta'lim –tarbiya jarayoniga qo'shgan hissasi juda katta.

**Rahbarlik davrida tarqoq kollektivni birlashtirdi, o'qituvchilarni bir-birlarini hurmat qilishlarini va samimiy bo'lishlarini tushuntirdi va shunga erisha oldi. Natijada bilim sifati ko'tarildi, samaradorlik oshdi. Maktab**

**o'quvchilari olimpiadalarda qatnashib, yuqori o'rinlarni egalladi.** Dars jarayonida pedagoglarni ko'rgazmali qurollardan mahorat bilan foydalanishiga erisha oldi, natijasida o'quvchilarida o'zlashtirish samaradorligining o'sishiga erishmoqda.

**2020 yil boshida tuman kengashiga deputatlar saylovida Posira saylov okrugidan nomzodi ko'rsatilib, XDP dan deputat etib saylandi.** O'quvchilar bilan olib boriladigan tarbiyaviy ishlar ta'sirchanligini oshirish, bolalarning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish maqsadida maktabda besh tashabbus bo'yicha sport, musiqa va zakovat kabi to'garaklar faoliyatini yo'lga qo'ygan.



1-rasm. Tokareva Irina Aleksandrovna (o'rtada)

U yuqori malakali pedagog, o'qituvchilar uchun o'z tajribasi va pedagogik mahoratini ayamaydigan mohir ustoz va maktabning obodonlashtirish ishlari va moddiy-texnika bazasiga jonkuyar rahbardir. Bilim maskanida va o'zi istiqomat qilayotgan mahallada o'tkazilayotgan tadbirlarda faol ishtirok etib, mamlakatimizda mustaqillik yillarida ta'lim sohasida amalga oshirilgan keng ko'lamlil islohotlarning mazmun-mohiyati va uning amaliy samaralarini targ'ib qiladi.

Yuqori malakali pedagog, fidoyi va jonkuyar inson sifatida hamkasblari va mahalla ahli o'rtasida hurmat qozongan.

### **XULOSA VA MUNOZARA**

Yuqorida aytilgan fikrlarning barchasi Yangi O'zbekistonda lider ayol, ularga e'tibor qaratish jamiyatga e'tibor qaratish ekanining amaldagi isbotidir. Bu tamoyillar jamiyatimizda ayollarga e'tibor berish va har jabhada ularning rag'batlantirib borishning amaliy va asosiy mezonini bo'lib qoladi.

### **ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Fridan B. Ayollik jumbog'i. - M., 2014 yil.
2. Barbieri E. Kelajak jamiyatidagi ayollarning roli 2013. yanvar.
3. Sokolovskaya M. Ayollarning ijtimoiy rollari (Polshada jamoatchilik fikrini o'rganish asosida) // Sotsiologik tadqiqotlar. 2018. № 3.

4. Novikova E.E., Milova O.L., Zalyubovskaya E.V. Ishda va uyda zamonaviy ayol //IVF. 2018. № 8.
5. Ivanova N. Ayollarda erkaklarni bezovta qiladigan narsa: oilaviy baxt sirlari. – Rostov-na-Donu, Feniks, 2017. P.211.